

**FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/07.06.2024.T.106.07  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY  
TADQIQOT UNIVERSITETI**

**SATTOROV ALIMARDON XAMDAMALIYEVICH**

**IRRIGATSIYA TIZIMLARIDAGI SUV QABUL QILISH  
INSHOOTLARINING GIDRAVLIK PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.09.07 – Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Farg‘ona - 2025**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on technical sciences**

**Sattorov Alimardon Xamdaliyevich**

Irrigatsiya tizimlaridagi suv qabul qilish inshootlarining gidravlik parametrlarini asoslash..... 3

**Сатторов Алимардон Хамдамалиевич**

Обоснование гидравлических параметров водоприемных сооружений ирригационных систем..... 21

**Sattorov Alimardon Xamdaliyevich**

Justification of the hydraulic parameters of water intake structures in irrigation systems..... 39

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 42

**FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/07.06.2024.T.106.07  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY  
TADQIQOT UNIVERSITETI**

**SATTOROV ALIMARDON XAMDAMALIYEVICH**

**IRRIGATSIYA TIZIMLARIDAGI SUV QABUL QILISH  
INSHOOTLARINING GIDRAVLIK PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.09.07 – Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Farg‘ona - 2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/T4978 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti va Farg'ona politexnika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.ferpi.uz](http://www.ferpi.uz)) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Arifjanov Aybek Muxamedjanovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Malikov Zafar Mamatqulovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Fayziyev Xomitxon**  
texnika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona politexnika instituti huzuridagi PhD.03/07.06.2024.T.106.07 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil 5 - aprel soat 11:00 da kichik majlislar zalida bo'lib o'tadi. Manzil: 150100, Farg'ona sh. Farg'ona k. 86 uy. Tel: (+99873) 241-12-06, faks (+99873) 241-12-06, e-mail: [ilmiykengash@ferpi.uz](mailto:ilmiykengash@ferpi.uz)

Dissertatsiya bilan Farg'ona politexnika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 283 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 150107, Farg'ona sh. Farg'ona k. 86 uy. Tel: (+99873) 241-12-06

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «20» 03 kuni tarqatildi.

(2025 yil «19» 03 dagi 1 -raqamli restr bayonnomasi).



**O'R. Salomov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

**Z.E. Abdulkayev**  
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, PhD, dotsent

**L.N. Samiyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash huzuridagi ilmiy seminar  
raisi, t.f.d., dotsent

## Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotatsiya)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonda irrigatsiya tizimlaridagi suv qabul qilish inshootlarining samaradorligini oshirishda oqim tarkibidagi daryo oqiziqalarini cho‘kish trayektoriyasini boshqarishni ta’minlaydigan ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. «Dunyo bo‘yicha 4 mlrd. 886,3 mln. gektar maydonda qishloq xo‘jaligi maxsulotlari yetishtirilib, ularning 43,2 foiz qismidagi ekinlarni sug‘orish uchun suv qabul qilish inshootlari orqali yetkazib berish hisobga olsak»<sup>1</sup>, irrigatsiya tizimlarini suv qabul qilish inshootlarining maqbul parametrlarini ishlab chiqib, amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan AQSh, Xitoy, Hindiston, Niderlandiya kabi ilg‘or gidrotexnika tizimlariga ega mamlakatlarda irrigatsiya tizimlarini samarali boshqarish, suv qabul qilish inshootlarining gidravlik ish rejimlarini optimallashtirish, oqim tezligini tartibga solish hamda daryo oqiziqalarining suv qabul qilish inshootlariga ta’sirini kamaytirishga qaratilgan ilg‘or texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda suv qabul qilish inshootlarini loyqa bosishdan saqlash maqsadida ularning oqim tezligiga bog‘liq holda muallaq va tub oqiziqalarning cho‘kish jadalligini hisobga olib, gidravlik hamda matematik modellashtirish mezonlari asosida konstruksiyalarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada irrigatsiya tizimlarida suv resurslaridan samarali foydalanishda, oqim tarkibidagi daryo oqiziqalarini fraksiyalarga ajratib suv qabul qilish inshootlarining barqaror ishlashini ta’minlash hamda daryo oqiziqalarining oqim jarayoniga ta’sirini chuqur o‘rganish orqali inshootning parametrlari va ish rejimlarini asoslashga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda suv qabul qilish inshootlarining boshqarish tizimini tubdan isloh qilish, samaradorligini oshirishga yordam beradigan yangi texnologiyalarni yaratish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish va ularni amalda qo‘llash yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Bu borada, «O‘zbekiston - 2030» strategiyasida<sup>2</sup> II «Barqaror iqtisodiy o‘sinh orqali aholi farovonligini ta’minlash» yo‘nalishida, jumladan «.....makroiqtisodiy barqarorlik hamda iqtisodiy rivojlanishni zarur darajadagi energetika, suv va infratuzilma resurslari bilan ta’minlash» bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, suv xo‘jaligi inshootlarini loyihalash, suv qabul qilish inshootlarida loyqa to‘planishining oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va o‘zgaruvchan ish sharoitlariga moslashgan, texnik va texnologik jihatdan modernizatsiyalangan suv qabul qilish inshootlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlanirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”<sup>3</sup>, 2019 yil 17 iyundagi PF-5742-son “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish choratadbirlari to‘g‘risida” gi farmonlari, 2017

<sup>1</sup> [www.amm.org.ua](http://www.amm.org.ua)/Понятие и состав земель сельскохозяйственного назначения.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017 yildagi PF-4947-son

yil 23 avgustdagi PQ-3238-son “Zamonaviy energiya samarador va energiya tejevchi texnologiyalarni tadbiq etishni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019 yil 9 oktabrdagi PQ-4486-son “Suv resurslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2023 yil 1 dekabrda O‘RQ–865-son “Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida”<sup>4</sup> gi, 2020-yil 10-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6024-son Farmoni<sup>2</sup> hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoni o‘rganilganlik darajasi:** Ochiq o‘zarlarda daryo oqiziqqlarining harakat nazariyasini va hisoblash usullarini ishlab chiqishda M.A.Velikanov, S.T.Altunin, I.I.Levi, K.I.Rossinskiy, I.A.Kuzmin, S.X.Abalyans, I.F.Karasev, A.V.Karushev, A.N.Gostunskiy, K.V.Grishanin, Y.A. Ibad-Zade, Y.K.Rabkova, V.K.Debolskiy, B.A.Fidman, I.A.Sherenkov, A.M.Muxamedov, Q.Sh.Latipov, X.A.Ismagilov, F.X.Xikmatov, A.M.Arifjanov, A.M.Fatxulloev, S.S.Eshev, L.N.Samiyev va boshqalar. Gidrotexnik qurilish sohasida gidrotexnik inshootlarni ekspluatatsiya qilish nazariyasi masalalariga katta e‘tibor qaratilgan. Bu borada ilmiy tadqiqotlar S.Ye.Mirxulava, I.N.Ivashenko, V.S.Pepoyan, S.G.Shulman, D.V.Stefanishin, O.M.Finagenov, M.M.Mirsaidov, M.R.Bakiyev, E.J.Maxmudov, T.Z.Sultanov, A.A.Yangiev va boshqalar tomonidan o‘tkazilgan. Sug‘orish nasos stansiyasi suv olish inshootlari konstruksiyasini takomillashtirish va ularni samaradorlik bilan ishlatish masalalari bir qator olimlar tomonidan olib borilgan T.V.Gavrilenko, A.M.Magomedov, S.A.Petuxov, A.L.Raxmanov, B.A.Colnshkov, V.V.Bajenov, I.E.Mahmudov. K.R.Allaev, Sh.X.Rahimov, T.S.Kamalov, M.M.Muhammadiev, M.M.Mamajanov, R.R.Ergashevlar ilmiy tadqiqot ishlarida nasos stansiyalarning ishlash samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishgan.

Respublikamizda irrigatsiya tizimlaridagi suv qabul qilish inshootlarining gidravlik hisobi va konstruktiv parametrlarini takomillashtirish bo‘yicha M.Mamajanov, M.M.Muxammadiev, A.M.Arifjonov, O.Y.Glovatskiy, B.U.Urishev, B.M.Shakirov, N.Raxmatov. F.Nosirov, R.Ergashev va boshqalar tomonidan bajarilgan.

Mazkur tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan turli izlanishlarga qaramasdan, suv qabul qilish inshootlarida oqim harakatining kinematikasi, daryo oqiziqqlarining taqsimoti, gidravlik va matematik modellashtirish asosida konstruksiyalarini takomillashtirish, suv qabul qilish inshootlarni daryo oqiziqqlardan tozalash usullari bo‘yicha tadqiqotlar yetarlicha o‘tkazilmagan.

---

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 10.07.2020 yildagi PF-6024-son

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.**

Dissertatsiya tadqiqoti "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 7-son "Irrigatsiya tizimlari, gidrotexnik inshootlar va suv omborlarning gidravlik va gidrologik jarayonlarini ilmiy asoslarini ishlab chiqish" (2020-2023), AK-006/22-sonli "Sug'orish tizimlarini loyqa-cho'kindilardan tozalash texnologiyasini takomillashtirish" (2022) mavzularidagi amaliy loyihalar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Suv qabul qilish inshootlarida oqim kinematik strukturasi inobatga olib, daryo oqiziqqlarni samarali boshqaruvchi inshoot konstruktiv elementlarini asoslashdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

suv qabul qilish inshootlarida oqiziqqlar taqsimotiga oid nazariy va amaliy tadqiqotlar tahlili;

tabiiy dala sharoitida oqim kinematik parametrlari, daryo oqiziqqlari taqsimoti va uning tarkibiy qismini tadqiqoti;

suv qabul qilish inshootlarida daryo oqiziqqlari taqsimotiga oqim kinematikasi ta'sirini ifodalovchi modelni ishlab chiqish;

suv qabul qilish inshootlarida daryo oqiziqqlarni samarali boshqaruvchi inshoot konstruktiv elementlarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Katta Farg'ona magistral kanalidan suv qabul qiluvchi Dehqonobod, So'x shohimardon soy kanali-1 va So'x nasos stansiyalarining suv qabul qilish inshootlari olingan.

**Tadqiqotning predmetini** suv qabul qilish inshootlari tarkibida loyqa suv oqimining tekis taqsimlanish jarayoni, oqim kinematikasi va daryo oqiziqqlarining taqsimotini ifodalovchi analitik bog'lanishlar va matematik modellarning shakllantirilishi, suv qabul qilish inshootlarining gidravlik parametrlarini, ish sharoitlari va ko'rsatkichlarini tahlil qilish hamda ularning o'zgarish qonuniyatlarini xisoblanadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot jarayonida "Tezlik maydon" usuli, gidravlika va gidrologiyada umum qabul qilingan uslublarda hamda gidrodinamikaning qonulari asosida matematik modellar tuzish, olingan ma'lumotlarni qayta ishlashda matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

suv qabul qilish inshootlarida oqimning notekis harakatida tezlik taqsimotiga daryo oqiziqqlarining fraksion tarkibini ta'sirini inobatga olib oqim kinematikasini ifodalovchi matematik modeli ishlab chiqilgan;

daryo oqiziqqlarini mexanik tarkibini hamda notekis harakatini inobatga olib suv qabul qilish inshootining uzunligi bo'ylab taqsimotini  $S_i$  hisoblash usulini  $\varepsilon = 0.07 \cdot \exp\{-0.82\bar{d}\}$  bog'liqlik orqali takomillashtirilgan;

ochiq o‘zanlarda daryo oqizqlarini oqim uzunligi va chuqurligi bo‘ylab o‘zgaruvchanligini inobatga olib suv qabul qiluvchi inshoot konstruksiyasini oqim chuqurligi va eni bo‘yicha oshib boruvchi shaklida ishlab chiqilgan; suv qabul qilish inshootlaridan foydalanish samaradorligini oshirishda oqim energiyasidan foydalanib, daryo oqizqlarini gidravlik tozalashni ta‘minlaydigan qurilma konstruksiyasi va hisoblash usuli tavsiya etilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

daryo oqizqlarining fraksion tarkibini va oqimning kinematik strukturasi inobatga olib, oqizqlarni suv qabul qilish inshootining uzunligi bo‘ylab taqsimotini hisoblash usuli takomillashtirilgan;

suv qabul qilish inshootlarini loyqa bosishdan himoya qilishda oqizqlarni boshqaruvchi inshootning konstruktiv elementlari ishlab chiqilgan;

daryo oqizqlarining taqsimotini fraksiyalarga ajratib boshqarish, suv qabul qilish inshootlaridan foydalanish samaradorligini oshirishda daryo oqizqlarini oqim energiyasidan foydalanib, gidravlik tozalashni ta‘minlaydigan elektron hisoblash dasturi ishlab chiqilgan (DGU 27625).

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Suv qabul qilish inshootlarida loyqa suv oqimining tekis taqsimlanish jarayoni, oqim kinematikasi va daryo oqizqlarining taqsimoti nazariy va matematik modellashtirish asosida aniqlangan bo‘lib, olingan natijalar dala tadqiqotlari hamda matematik modellashtirish ijobiy natijalari va amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati suv qabul qilish inshootlarida oqimning kinematik parametrlari taqsimotini matematik modelning turbulentslik  $k-\epsilon$  modeli asosida ishlab chiqilganligi, daryo oqizqlarini boshqarishda inshootlar konstruktiv elementlarini oqimning kinematik strukturasi inobatga olib ishlab chiqilganligi, oqizqlarini oqim chuqurligi va ko‘ndalang kesimi bo‘ylab o‘zgaruvchanligini inobatga olib oqizqlarni inshoot uzunligi bo‘ylab taqsimotini hisoblash usuli takomillashtirganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalari irrigatsiya tizimlaridagi suv qabul qilish inshootlariga cho‘kkan loyqa oqizqlarni oqim energiyasidan samarali foydalanish orqali yarim aylana shaklidagi ostonaga yordamida tozalash hamda daryo oqizqlarini resurs sifatida qayta ishlash imkoniyatlari bilan izohlanadi.

**Tadqiqotlar natijalarining joriy qilinishi.** Irrigatsiya tizimlaridagi suv qabul qilish inshootlarining gidravlik parametrlarini asoslash bo‘yicha olingan natijalar asosida:

Katta Farg‘ona magistral kanalidan oqim bilan kirib kelayotgan daryo oqizqlarining miqdori, kamaytirish bo‘yicha tavsiyalar “Katta Farg‘ona magistral kanali” boshqarmasida joriy qilingan (Suv xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 23-sentabr №-05/13-3441-son ma‘lumotnomasi). Natijada kanaldan suv olishda  $d \geq 0.1$  mm dan yuqori bo‘lgan daryo oqizqlarini fraksiyalariga ajratib boshqarish imkoniyati yaratilgan;

suv qabul qilish inshootlarida daryo oqizqlarning yarim aylana shaklidagi ostonada yig‘ish bo‘yicha tavsiyalar “Nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi”

tasarrufidagi Dehqonobod, KFK – SShK-1 va KFK-So‘x nasos stansiyalarida joriy qilingan (Suv xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 23-sentabr №-05/13-3441-son ma’lumotnomasi). Natijada suv qabul qilish inshootiga o‘rnatilgan ostonada hisobiy davr uchun  $W_{um}=1044 \text{ m}^3$  loyqa cho‘kindilarni olib qolish imkoniyati yaratilgan;

irrigatsiya kanallaridagi suv qabul qilish inshootlarida loyqa cho‘kindilarni oqim energiyasidan foydalanib, tozalash usuli bo‘yicha tavsiyalar “Sirdaryo-So‘x irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi” da joriy qilinganligi (Suv xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 23-sentabr №-05/13-3441-son ma’lumotnomasi. Natijada, daryo oqiziqklarining yarim aylana shaklidagi ostona orqali to‘kuvchi yama tomon yo‘naltirilishi hisobiga ekspluatatsion xarajatlar 1,5 martagacha kamaygan va nasoslarning ishchi g‘ildiraklarining loyqa ta’sirida yemirilish darajasi pasayib, ularning xizmat muddati 1 yildan 3 yilgacha ishlash imkoniyatiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 22 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola, jumladan, 11 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan, intellektual mulk agentligidan 2 ta EHM dasturi uchun guvohnomalar olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 119 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


**Kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya hajmi va tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining “**Suv qabul qilish inshootlarida oqim harakati va daryo oqiziqklarining taqsimotiga doir nazariy va amaliy tadqiqotlar tahlili**” deb nomlangan birinchi bobda VOSviewer dasturi asosida olib borilgan nazariy va eksperimental natijalar tahlili orqali suv qabul qilish inshootlarida daryo oqiziqklarini boshqarish va tozalashning joriy holati, foydalanish imkoniyatlari, loyqa cho‘kindilarni tozalashning gidravlik va texnologik usullari aniqlanib, tadqiqotning asosiy vazifalari shakllantirilgan.


Dissertatsiya ishining “**Tabiiy dala sharoitida suv qabul qilish inshootlarida daryo oqiziqqlarni taqsimotining tadqiqoti**” deb nomlangan ikkinchi bobida tanlab olingan tadqiqot obektlarida tabiiy dala sharoitidagi tadqiqotlar va laboratoriya tahlillari natijalari keltirilgan.

Tadqiqot obyekti sifatida Dehqonobod, KFK-SShK-1 va KFK-So‘x nasos stansiyalarining suv qabul qilish inshootlari tanlab olingan. Tabiiy dala tadqiqotlarida suv qabul qilish inshootlarining daryo oqiziqalari taqsimoti bo‘yicha izlanishlar olib borilgan. Yuqoridagi keltirib o‘tilgan inshootlarda oqimning gidravlik parametrlarini o‘lchash maqsadida xarakterli stvorlar tanlab olingan.


Dehqonobod, KFK-SShK-1 va KFK-So‘x nasos stansiyalarining suv qabul qilish inshootlarida belgilab olingan stvorlarda har xil chuqurliklarda oqim tezligi va sarfini o‘lchash uchun mo‘ljallangan “SonTek RS5” maxsus mobil qurilmasidan foydalanildi harakat kesim elementlari oqim tezligi aniqlangan (1-rasm).



a) Dehqonobod. 3-stvor, PK864+64



b) KFK-SShK-1. 1-stvor, PK1512+06



c) KFK-So‘x. 3-stvor, PK1995+00

### 1-rasm. Tadqiqot obyektlarida o‘lchov natijalari (2023).


Har bir tanlab olingan stvorlarda oqimning gidravlik parametrlari bilan bir qatorda batometr yordamida loyqalik miqdori o‘lchandi va laboratoriya sharoitida loyqalikning fraksiyon tarkibi aniqlandi. Suv qabul qilish inshootlari olib borilgan tadqiqotlardan ma’lum bo‘ldiki, yillar davomida suv qabul qilish inshootining ishlash rejimi o‘zgargan bo‘lib, suv qabul qilish inshootining funksiyasi bajarish imkoniyati pasayib ketganligi, ya’ni inshoot shakli o‘zgarib loyqa cho‘kish jarayonlari jadallashgan holatlari ham kuzatildi.

Loyqalik miqdorini zamonaviy o‘lchov qurilmalaridan bir bo‘lgan Spektrofotometr UV755 qurilmasidan foydalanilgan. O‘lchangan loyqalikning fraksion tarkibi “Gidroproekt” AJ laboratoriyasidan foydalanib amalga oshirilgan.

Dehqonobod va KFK-SShK-1 suv qabul qilish inshootlarida oqimdagi loyqalik miqdori mart oyidan avgust oyiga qadar o‘zgarishlari tahlili keltirilgan. KFK-So‘x suv qabul qilish inshootida mart oyidan boshlab iyun oyiga qadar faoliyat olib borganligi sababli oqimdagi loyqalik miqdorini o‘zgarishlari tahlili inshootning ishchi davri uchun keltirib o‘tilgan.


Olingan ma’lumotlar matematik statistik usullarida tahlil etilib, oqimdagi loyqalik miqdori sug‘orish davrlarining o‘zaro bo‘liqlik gistogrammasi ishlab chiqildi. Unga ko‘ra mart oyida oqimdagi loyqalik ulushi  $3.15-3 \text{ kg/m}^3$  dan o‘zgarishi aniqlangan bo‘lsa, bu natijalar avgust oyiga borib kamayishi kuzatildi ya’ni oqimdagi loyqalik ulushi  $2,4 \text{ kg/m}^3$  dan  $2,15 \text{ kg/m}^3$  gacha o‘zgarishi aniqlangan.

Dehqonobod, KFK-SShK, va KFK-So‘x nasos stansiyalarida olib borilgan tadqiqotlar suv qabul qilish inshootilarning ish rejimi, inshootning uzunligi bo‘ylab daryo oqizqlarining taqsimoti va fraksion tarkibini o‘rganishga qaratildi (2-rasm).



### 2-rasm. Oqimdagi loyqalik miqdori (2023).

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, grafikdan ko‘rinib turibdiki, mayda fraksiyalar orasida  $d = 0,1-0,05 \text{ mm}$  gabaritdagi zarrachalar ulushi 18–20% atrofida o‘zgarib, nisbatan barqaror taqsimlanish tendensiyasini namoyon qilmoqda. Shuningdek,  $d=0,05-0,01 \text{ mm}$  diapazonidagi yanada mayda zarrachalarning ulushi 14,5–17% oralig‘ida  $d=0,25-0,10 \text{ mm}$  fraksiyalar gidravlik sharoitlarga sezilarli darajada bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.



### 3-rasm. Oqizilarning fraksiyon tarkibi taqsimoti (2023).

Yuqoridagilardan xulosa qilib, daryo oqizilarning suv qabul qilish inshootlaridagi taqsimoti oqizilarning gidromexanik va oqimning gidrodinamik parametrlariga bog'liqligi aniqlandi. Bu, o'z navbatida, inshootlarning ishlash samaradorligini yaxshilash va loyqa cho'kindilardan tozalashning samarali usullarini ishlab chiqish uchun muhim ahamiyatga ega.

Dissertatsiya ishining “Suv qabul qilish inshootlarida oqim kinematik parametrlari va daryo oqizilari taqsimotining matematik modeli” deb nomlangan uchinchi bobida suv qabul qilish inshootlarida oqimning kinematik parametrlari va daryo oqizilarning harakatini matematik jihatdan modellashtirish ishlari amalga oshirilgan bo'lib, RANS (Reynolds-Averaged Navier-Stokes) yondashuvi asosida k-ε turbulent modelidan foydalanib, oqim tezligi va daryo oqizilarning cho'kish traektoriyasini aniqlash bo'yicha nazariy tadqiqotlar olib borilgan.

$$\left\{ \begin{aligned} \frac{\partial \rho}{\partial \tau} + \frac{\partial \rho \bar{V}_x}{\partial x} + \frac{\partial \rho \bar{V}_y}{\partial y} + \frac{\partial \rho \bar{V}_z}{\partial z} &= 0, \\ \frac{\partial C_\rho}{\partial \tau} + \frac{\partial C_\rho \bar{V}_{px}}{\partial x} + \frac{\partial C_\rho \bar{V}_{py}}{\partial y} + \frac{\partial C_\rho \bar{V}_{pz}}{\partial z} &= \frac{\partial}{\partial x} \left( D \frac{\partial C_\rho}{\partial x} \right) + \frac{\partial}{\partial y} \left( D \frac{\partial C_\rho}{\partial y} \right) + \frac{\partial}{\partial z} \left( D \frac{\partial C_\rho}{\partial z} \right), \\ \rho \frac{\partial \bar{V}_x}{\partial \tau} + \rho \bar{V}_x \frac{\partial \bar{V}_x}{\partial x} + \rho \bar{V}_y \frac{\partial \bar{V}_x}{\partial y} + \rho \bar{V}_z \frac{\partial \bar{V}_x}{\partial z} + \frac{\partial \bar{p}}{\partial x} &= \frac{\partial}{\partial x} \left( \nu \rho \frac{\partial \bar{V}_x}{\partial x} \right) + \frac{\partial}{\partial y} \left( \nu \rho \frac{\partial \bar{V}_y}{\partial y} \right) + \\ &+ \frac{\partial}{\partial z} \left( \nu \rho \frac{\partial \bar{V}_z}{\partial z} \right) - \frac{\partial \overline{\rho g_x g_x}}{\partial x} - \frac{\partial \overline{\rho g_x g_y}}{\partial y} - \frac{\partial \overline{\rho g_x g_z}}{\partial z} + \sum_{i=1}^N \frac{\rho_{\rho i}}{\rho} k_i (\bar{V}_{px} - \bar{V}_x); \\ \rho \frac{\partial \bar{V}_y}{\partial \tau} + \rho \bar{V}_x \frac{\partial \bar{V}_y}{\partial x} + \rho \bar{V}_y \frac{\partial \bar{V}_y}{\partial y} + \rho \bar{V}_z \frac{\partial \bar{V}_y}{\partial z} + \frac{\partial \bar{p}}{\partial y} &= \frac{\partial}{\partial x} \left( \nu \rho \frac{\partial \bar{V}_x}{\partial x} \right) + \frac{\partial}{\partial y} \left( \nu \rho \frac{\partial \bar{V}_y}{\partial y} \right) + \end{aligned} \right.$$

$$\left\{ \begin{aligned}
& + \frac{\partial}{\partial z} \left( \nu \rho \frac{\partial \bar{V}_y}{\partial z} \right) - \frac{\partial \rho \bar{g}_x \bar{g}_y}{\partial x} - \frac{\partial \rho \bar{g}_y \bar{g}_y}{\partial y} - \frac{\partial \rho \bar{g}_y \bar{g}_z}{\partial z} + \sum_{i=1}^N \frac{\rho_{\rho i}}{\rho} k_i (\bar{V}_{py} - \bar{V}_y); \\
& \rho \frac{\partial \bar{V}_z}{\partial \tau} + \rho \bar{V}_x \frac{\partial \bar{V}_z}{\partial x} + \rho \bar{V}_y \frac{\partial \bar{V}_z}{\partial y} + \rho \bar{V}_z \frac{\partial \bar{V}_z}{\partial z} + \frac{\partial \bar{p}}{\partial z} = \frac{\partial}{\partial x} \left( \nu \rho \frac{\partial \bar{V}_z}{\partial x} \right) + \frac{\partial}{\partial y} \left( \nu \rho \frac{\partial \bar{V}_z}{\partial y} \right) + \\
& + \frac{\partial}{\partial z} \left( \nu \rho \frac{\partial \bar{V}_z}{\partial z} \right) - \frac{\partial \rho \bar{g}_x \bar{g}_z}{\partial x} - \frac{\partial \rho \bar{g}_y \bar{g}_z}{\partial y} - \frac{\partial \rho \bar{g}_z \bar{g}_z}{\partial z} + \sum_{i=1}^N \frac{\rho_{\rho i}}{\rho} k_i (\bar{V}_{pz} - \bar{V}_z) - F_z; \\
& \frac{\partial V_{px}}{\partial \tau} + V_{px} \frac{\partial V_{px}}{\partial x} + V_{py} \frac{\partial V_{px}}{\partial y} + V_{pz} \frac{\partial V_{px}}{\partial z} = k_i (V_x - V_{px}), \\
& \frac{\partial V_{py}}{\partial \tau} + V_{px} \frac{\partial V_{py}}{\partial x} + V_{py} \frac{\partial V_{py}}{\partial y} + V_{pz} \frac{\partial V_{py}}{\partial z} = k_i (V_y - V_{py}), \\
& \frac{\partial V_{pz}}{\partial \tau} + V_{px} \frac{\partial V_{pz}}{\partial x} + V_{py} \frac{\partial V_{pz}}{\partial y} + V_{pz} \frac{\partial V_{pz}}{\partial z} = k_i (V_z - V_{pz}) - F_z,
\end{aligned} \right. \quad (1)$$

Yuqoridagi tenglamalarda  $\bar{g}_x, \bar{g}_y, \bar{g}_z$  o'rtacha oqim tezligi vektorining komponentlari mos ravishda,  $g_{px}, g_{py}, g_{pz}$  o'rtacha zarrachaning tezligi vektorining komponentlari mos ravishda p-gidrostatik bosim,  $\nu$ -suyuqlikni kinematik qovushqoqligi.  $\rho$ -suyuqlikni zichligi.  $C_{\rho}$ -zarrachaning konsentratsiyasi,  $F_z$ -og'irlik kuchi,  $D$ -qattiq fazaning diffuziya koeffitsienti  $D = \frac{\rho}{\rho + \rho_{\rho}} \frac{\nu + \nu_t}{Sc}$ ,  $Sc$ -Shmid

koeffitsienti,  $k_i = \frac{18\rho\nu}{\rho_{\rho}\delta_i^2}$  - Stoks parametri,  $i$ -fraksiya uchun.



Yuqoridagi (1) tenglamalar sistemasi ochiq hisoblanadi buni yopish uchun Bussinesk gipotizasidan foydalaniladi.

$$-\rho \bar{g}_i \bar{g}_j = 2\mu_t S_{ij} - \rho \frac{2}{3} k \delta_{ij} \quad (2)$$

Yuqoridagi (2) tenglamaning o'ng tomonidagi oxirgi had birlik hajmdagi turbulent kuchni difoalaydi, bu yerda,  $\mu_t$  - turbulent dinamik yopishqoqligi, suyuqlikning pulsatsiyalanuvchi tezligini ifodalaydi.


RANS (Reynolds-Averaged Navier-Stokes) yondashuvi turbulent oqimni o'rtacha tezlik va pulsatsion tezlik yig'indisi sifatida ifodalaydi. Bu yondashuv Navier-Stoks tenglamalariga qo'llanilganda va vaqt bo'yicha o'rtachalash amalga oshirilganda, natijada Reynolds tenglamalar sistemasi hosil bo'ladi.

Ushbu tenglamalarni yechish uchun qo'shimcha yopilish munosabatlarini talab qiladigan yarim empirik turbulentlik modellari qo'llaniladi. Muhandislik masalalarini matematik usullar yordamida hal qilishda, turbulent oqimning asosiy xususiyatlarini ifodalashda hamda turbulent harakatning dinamik tahlilini amalga oshirishda k- $\epsilon$  turbulentlik modeli keng qo'llanilgan bo'lib, u turbulent energiya ( $k$ ) va dissipatsiya tezligi ( $\epsilon$ ) tenglamalari asosida turbulent harakatni tavsiflashga hamda oqim strukturasi haqida batafsil ma'lumot olishga imkon beradi.




**4-rasm. Suv qabul qilish inshootining sxematik ko‘rinishi.**

RANS yondashuvi asosida  $k-\varepsilon$  turbulentslik modelidan foydalanib, suv qabul qilish inshootlaridagi tezlik izochiziqlarini ko‘rib chiqilgan bo‘lib, ushbu izo-liniyalar gidrodinamik parametrlarni va model hajmini turli qismlarida taqsimlanishini ifodalab beradi. Bu o‘z navbatida oqim xususiyatlarini batafsil tahlil qilish imkonini beradi (5-rasm).



a) sirt




b) h=1 metr chuqurlikda

**5-rasm. Tezlik izochiziqlari.**

Tezlik vektori oqimning har bir nuqtasidagi holatini tavsiflaydi va uning umumiy harakati va o‘zgarishlarini aniqlashda muhim parametr hisoblanadi. Suv qabul qilish inshootlarida tezlik izochiziqlari tahlil qilinganda,  $h=1$  m chuqurlikda va sirtga nisbatan tezlikning keskin o‘zgarishlari kuzatiladi. Bu holat tezlik vektorining o‘zgarishi va oqimning murakkab taqsimlanishini ifodalaydi, bunda uyurmalar jadallashadi.

Gidravlik nuqtai nazardan, bunday tezlik o‘zgarishlari oqimning noaniqligini keltirib chiqarishi mumkin, bu esa inshootlarning samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun, tezlik vektorining chuqurlik va sirt bo‘yicha o‘zgarishlarini modellashtirishda inobatga olish juda muhimdir. Bu jarayon gidrotexnik inshootlar va irrigatsion tizimlarning samarali ishlashini ta’minlashda asosiy vosita hisoblanadi. Tezlik vektorining aniq taqsimlanishini hisobga olish,

oqim jarayonlarini yanada yaxshiroq modellashtirishga yordam beradi va tizimlarning gidravlik samaradorligini oshiradi (6-rasm).




a) sirtida

b) h=1 metr chuqurlikda

### 6-rasm. Suv qabul qilish inshootida tezlik vektorini aniqlash.

Suv qabul qilish inshootlarida oqimning turbulentlik darajasini aniqlash uchun, oqim sirtidagi va h=1 m chuqurlikdagi zarrachalar tezlik vektori chiziqlari yordamida oqim chizig'i tasvirlangan. Bu vizualizatsiya yordamida oqimning harakati va uning murakkabligi aniq ko'rsatiladi, bu esa gidravlik analiz va modellashtirish jarayonlarida juda muhim ahamiyatga ega.



a) sirtida

b) h=1 metr chuqurlikda


### 7- rasm. Suv qabul qilsih inshootida oqim chizig'i.

Suv qabul qilish inshootlarida oqim tezligining belgilangan srvorlarda ko'ndalang eni. Dala tadqiqotida o'lchov natijalari va  $k - \varepsilon$  turbulentlik modeli asosida hisoblangan qiymatlar solishtirilgan (8-rasm).


Natijalar shuni ko'rsatadiki, oqim tezligi taqsimoti ikkala holatda ham bir-biriga yaqin natijalarni beradi. Birinchi stvor misolida o'lchangan qiymatlarni ko'radigan bo'lsak oqim markazida  $v_{o'} = 0.58 \text{ m/s}$  maksimal qiymati kuzatiladi, modelda esa bu ko'rsatkich  $v_m = 0.57 \text{ m/s}$  ifodalamoqda. Suv qabul inshoot eni bo'ylab chetlarga siljinishi bilan oqim tezligi asta-sekin pasayib,  $v_{o'} = 0,13 \text{ m/s}$  bo'lsa modelda bu qiymatlardan biroz pasayganini  $v_{o'} = 0,12 \text{ m/s}$ . Yuqoridagilardan bilish mumkinki  $k - \varepsilon$  modeli yordamida hisoblangan oqim tezligi taqsimoti dala o'lchov natijalariga mos kelishini va modelning aniqligini tasdiqlaydi.

Ushbu natijalar  $k - \varepsilon$  modelining suv qabul qilish inshootlaridagi gidravlik jarayonlarni tahlil qilishda yuqori ishonchligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, real


o'lovlar va model natijalari orasidagi kichik tafovutlar modellash parametrlarining mosligini va dala sharoitlarga yaqinligini anglatadi.




a) stvorlar rejasi



b) 1-stvor





c) 2-stvor



d) 3-stvor

### 8- rasm. Oqim tezligi taqsimoti.

Dala tadqiqotidan aniqlangan loyqa zarrachalarining fraksiyon tarkibini inobatga olib model yordamida loyqa zarrachalarining cho'kish traektoriyasi aniqlash ishlari amalga oshirildi.



### 9- rasm Loyqa zarrachalarni cho'kishi va traektoriyasi.

Bunda suv qabul qilish inshooti 3 qismga bo'lib olinib, diametri 0.05 mm dan boshlab 0.5 mm gacha bo'lgan loyqa zarrachalarni turli xil qismlarga cho'kishi ko'rib o'tilgan (9- rasm). Zarrachalarning hajm bo'yicha taqsimlanishini va ularning

qismlar bo'yicha taqlanishi hamda cho'kishini ko'rsatadigan grafikdir. Modelda kirishdagi oqim tezligi 0.75 m/s bo'lganda diametri 0.05 mm zarrachalar 3% inshootni 2- qismiga cho'kmoqda, diametri 0.3 mm zarracha 50 %, 1- qismga 30 %, 2-qismga 20 % zarrachalar cho'kmoqda. Matematik modellashtirish yondashuvi nafaqat ilmiy ahamiyatga ega, balki olingan natijalar asosida suv ta'minoti inshootlarida oqimni barqarorlashtirish va oqizishlarni samarali boshqarish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga imkon yaratadi.

Dissertatsiya ishining “**Suv qabul qilish inshootlarida daryo oqizmalarini boshqaruvchi inshoot konstruktiv elementlarni takomillashtirish**” deb nomlangan to'rtinchi bobida yuqorida ishlab chiqilgan matematik model va tabiiy dala tadqiqotlari natijalaridan kelib chiqib, inshootning konstruktiv parametrlari tavsiya etildi. Daryo oqizmalarini inshootlarda boshqarishda asosiy omil sifatida oqim tezligi va loyqalikning fraksion tarkibi e'tiborga olindi.

Taklif etilgan suv qabul qilish inshootini muvaffaqiyatli joriy etish uchun quyidagi bosqichlarni amalga oshirildi:

1. inshootga kirib keladigan kunlik umumiy loyqalik  $Q_{um}$  miqdorini va  $W_k$  loyqalik hajmini hisoblanildi;
2. inshootda qolishi lozim bo'lgan, ya'ni  $d \geq 0.1 \text{ mm}$  dan yuqori  $S_{0.1}$  cho'kindi miqdori aniqlandi;
3. inshootga o'rnatilgan ostonaning  $W_{um}$  loyqa cho'kindi olish hajmi hisoblandi.
4. suv qabul qilish inshootiga ostonaga o'rnatishning  $L_i$  masofasi aniqlandi.

Suv qabul qilish inshootiga kirib keladigan  $Q_{um}$  loyqalik miqdori quyidagi formulaga (3) asosida aniqlangan:

$$Q_{um} = S_{um} \cdot q_s \quad (3)$$

bu yerda:  $Q_{um}$  - umumiy loyqalik miqdori ( $\text{m}^3/\text{s}$ ),  $S_{um}$  - umumiy loyqalik konsentratsiyasi  $\text{kg}/\text{m}^3$ ,  $q_s$  - suv sarfi ( $\text{m}^3/\text{s}$ ).

Kunlik loyqalik hajmini hisoblash uchun umumiy cho'kindi miqdorini aniqlash zarur bo'ladi. Bunda suv qabul qilish inshootiga kirib kelayotgan umumiy loyqa cho'kindilar miqdorini  $S_{0.1}$  –  $d \geq 0.1 \text{ mm}$  dan yuqori bo'lgan inshootda qolish lozim bo'lgan loyqalik miqdorini quyidagi ifoda orqali topiladi:

$$Q_{0.1} = Q_{um} \cdot S_{0.1} \quad (4)$$

bu yerda:  $Q_{0.1}$  - suv qabul qilish inshooti ishlash muddatidagi loyqalik miqdori,  $S_{0.1}$  –  $d \geq 0.1 \text{ mm}$  dan yuqori bo'lgan loyqa zarrachalar ulushi.

Kunlik loyqalik hajmini hisoblash va umumiy cho'kindi miqdorini aniqlash uchun zarrachalarning o'lchami va ularning konsentratsiyasi tahlil qilinadi. Bu jarayon quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:


Loyqalik hajmini aniqlash:

$$W_k = \frac{Q_{0.1}}{\rho_z} \quad (5)$$

bu yerda:  $W_k$ -loyqalik hajmi ( $\text{m}^3/\text{sutka}$ ),  $\rho_z$  -loyqa zarrachalarining zichligi ( $\text{kg}/\text{m}^3$ ).

Suv qabul qilish inshootiga o'rnatilgan ostonani  $W_{um}$  loyqa olish hajmini quyidagi ifoda orqali topiladi:

$$W_{um} = W_1 + W_2 \quad (6)$$



### 10-rasm. Suv qabul qilish inshootida ostona parametrlarini hisoblash.

$W_1$  hajmini quyidagicha aniqlaniladi:

$$W_1 = V_{pri} - 2V_{pri} \quad (7)$$

Ushbu yarim aylana shaklidagi ostonani hajmi quyidagicha aniqlanadi:

$$W_2 = \frac{\pi h^2}{8} \cdot B \quad (8)$$

Suv qabul qilish inshootlarida daryo oqiziqclarini oqim uzunligi bo'yicha taqsimoti  $S_i$  -zarrachali loyqalik quyidagi ifoda orqali aniqlangan.

$$S_i = S_0 \exp \left\{ -\frac{\varepsilon_i W_i}{H_i \vartheta_i} x \right\} \quad (9)$$

bu yerda:  $S_0$  - stvoridagi loyqalik miqdori;  $W_i$ -gidravlik yiriklik;  $\vartheta_i$ -qimning o'rtacha tezligi;  $H_i$  - oqim chuqurligi;  $x$  - zarrachani cho'kish masofasi;  $\varepsilon$  - muallaqlashuv koeffitsienti.

Keltirilgan ifoda (9) oqim uzunligi bo'yicha oqiziqclarining muallaqlashuv koeffitsienti dala tadqiqotlarida olingan ma'lumotlar asosida quyidagicha aniqlangan:

$$\varepsilon = 0,07 \cdot \exp \left\{ -0,82 \bar{d} \right\}. \quad (10)$$

bu yerda:

$$\bar{d} = \frac{d_i}{d_m}$$

$d_i$  - qaralayotgan zarrachaning diametri,  $d_m$ - oqiziqclarining fraksion tarkibidagi oqiziq zarrachasining eng katta diametri.


Suv qabul qilish inshootidagi oqim tarkibidagi daryo oqiziqclarining cho'kish masofasi oqim tezligini inobatga olib aniqlanadi. Ostonani kirish qismiga nisbatan o'rnatish masofasi quyidagi ifoda (9) orqali aniqlanadi.

$$\ln \frac{S_i}{S_0} = \frac{\varepsilon_i W_i}{\vartheta_i H_i} \cdot L_i \quad (11)$$

bundan:

$$L_i = \frac{\left(-\ln \frac{S_i}{S_0}\right) \cdot g_i H_i}{\varepsilon_i W} \quad (12)$$

Suv qabul qilish inshootlarini daryo oqiziqlaridan tozalash ularning samaradorligini oshirish va uzoq muddatli ishlashini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Daryo oqiziqlari vaqt o'tishi bilan inshootlarning suv qabul qilish quvvatini pasaytirib, gidravlik sharoitlarning yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Bu esa nasos agregatlarining ish samaradorligini kamaytirib, ularning ortiqcha energiya sarflashiga va tezroq ishdan chiqishiga sabab bo'ladi. Ushbu texnologik yechim nafaqat suv qabul qilish jarayonining samaradorligini oshirish, balki inshootlarning ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirishga ham xizmat qiladi. Oqiziqlarning o'z vaqtida tozalanishi inshootlarning ishchi qismlariga tushadigan yuklamani kamaytirib, ularning xizmat muddatini uzaytiradi. Shuningdek, bu usul nasoslar va boshqa gidravlik jihozlarning eskirish darajasini pasaytirib, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlariga ketadigan xarajatlarni qisqartirish imkonini beradi.



**11 – rasm. Taklif etilayotgan ostonali suv qabul qilish inshooti.**

1- suv keltrish kanali; 2-suv qabul qilish inshooti; 3- ostona; 4-zadvijka; 5- suv qabul qilish kamerasi; 6-nasosning so‘rish quvuri.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar Suv xo‘jaligi vazirligi tasarrufidagi “Nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi”ga qarashli Dehqonobod, KFK-SShK-1 va KFK-So‘x nasos stansiyalarining suv qabul qilish inshootlariga tatbiq etildi. Tadqiqot natijalarining amaliy qo‘llanilishi natijasida irrigatsiya tizimlarini loyqa cho‘kindilardan tozalash hajmini kamaytirish orqali suv xo‘jaligi obyektlarining samaradorligi oshirildi hamda iqtisodiy tejamkorlikka erishildi.

## XULOSA

Suv qabul qilish inshootlarida oqim kinematik strukturasi inobatga olib, daryo oqiziqlarini samarali boshqaruvchi inshoot konstruktiv elementlarini asoslash bo‘yicha olib borilgan taqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Suv qabul qilish inshootlariga oqim bilan birga daryo oqiziqtlari harakatlanishi natijasida inshootning o'ng va chap devorlari yaqinida loyqa cho'kishi, shuningdek, inshootning konsolli kengayish burchagida o'zgarishlar kuzatilgan. Natijada, suv qabul qilish inshootidagi oqim tezligi kirishdagi tezlikka nisbatan inshoot markazida 10-15% ga farq qilishi daryo oqiziqtlarining nasos stansiyasiga kirib ketishiga olib kelmoqda. Bu esa ishchi g'ildiraklarning xizmat muddatini bir mavsum foydalanishiga sabab bo'lmoqda.

2. RANS yondashuvi va  $k-\varepsilon$  turbulentslik modeli asosida olib borilgan matematik modellashirish natijalari suv qabul qilish inshootlarida turbulent oqim darajasining chuqurlik bo'yicha sezilarli darajada o'zgarishini tasdiqladi. Bussinesk gipotezasi asosida hisoblangan turbulent yopishqoqlik koeffitsienti oqiziqtlarning cho'kish traektoriyasini aniqlash imkonini berdi. Hisoblash natijalariga ko'ra, kirishdagi oqim tezligi 0,75 m/s bo'lganda, diametri 0,05 mm bo'lgan zarrachalarning 3% suv qabul qilish inshootining 2-qismida cho'kishi aniqlandi. Shuningdek, diametri 0,3 mm bo'lgan zarrachalarning 50% cho'kib, ulardan 30% inshootning 1-qismida, 20% (0,2 massaviy ulush) esa 2-qismida to'planishi qayd etilgan.

3. Tabiiy dala sharoitida Katta Farg'ona magistral kanalidagi Dehqonobod, So'x Shohimardon soy kanali-1 va So'x nasos stansiyalarining suv qabul qilish inshootlarida olib borilgan tadqiqotlar natijasida to'plangan ma'lumotlar matematik statistika usullari asosida qayta ishlanib, hisoblash usullarining adekvatligi baholandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, suv qabul qilish inshootining uzunligi bo'ylab oqiziqtlar taqsimotini tavsiflovchi  $S_i$  ifodasidagi muallaqlashuv koeffitsienti quyidagi eksponensial bog'lanish orqali  $\varepsilon = 0.07 \cdot \exp\{-0.82\bar{d}\}$  aniqlashga erishilgan.

4. Suv qabul qilish inshootlarini samarali loyihalash va ekspluatatsiya qilish uchun daryo oqiziqtlarining tarkibi, harakat rejimlari hamda oqim kinematikasi xususiyatlarini hisobga olish zarur. Tadqiqot natijalariga ko'ra, inshoot kirish qismida oqim tezligi **0,70 m/s** bo'lganda, o'ng va chap devorlar yaqinida **0,4–0,5 m/s** gacha farqlanish kuzatilib, loyqa cho'kishi faqat ostona hududida sodir bo'lishi ta'minlandi.

5. Suv qabul qilish inshootiga oqim bilan kirib kelayotgan daryo oqiziqtlarining diametri  $d \geq 0.1$  mm bo'lgan fraksiyalarini ajratish va boshqarish usullari ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yarim aylana shaklidagi ostonada oqiziqtlarni yig'ish orqali cho'kindilarni hisobiy davr davomida  $W_{um}=1044$  m<sup>3</sup> loyqa cho'kindilarni ushlab qolish imkonini berdi.

6. Tadqiqot natijalari asosida Dehqonobod, So'x shohimardon soy kanali-1 va So'x nasos stansiyalarining suv qabul qilish inshootlari uchun gidravlik parametrlarni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berildi. Ishlanmalarning ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligi baholandi, natijada yillik 66,8 million so'mgacha tejash va 115 million so'mgacha daromad olish mumkinligi aniqlandi. Umumiy iqtisodiy samaradorlik 181.9 million so'mni tashkil etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/07.06.2024.Т.106.07  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
ПРИ ФЕРГАНСКОМ ПОЛИТЕХНИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**  

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
“ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ИНЖЕНЕРОВ ИРРИГАЦИИ И  
МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА”**

**САТТОРОВ АЛИМАРДОН ХАМДАМАЛИЕВИЧ**

**ОБОСНОВАНИЕ ГИДРАВЛИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ  
ВОДОПРИЕМНЫХ СООРУЖЕНИЙ ИРРИГАЦИОННЫХ СИСТЕМ**

**05.09.07 – Гидравлика и инженерная гидрология**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Фергана – 2025**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2024/З.РnD/Г4978

Диссертация выполнена в Национальном исследовательском университете "Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства" и Ферганском политехническом институте.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.ferpi.uz](http://www.ferpi.uz)) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Арифжанов Айбек Мухамеджанович**  
доктор технических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Маликов Зафар Маматкулович**  
доктор технических наук, профессор

**Файзиев Хомитхон**  
доктор технических наук, профессор

**Ведущая организация:**

Анджиданский институт сельского хозяйства и агротехнологий

Защита диссертации состоится « 5 » 04 2025 г. 11:00 часов на заседании Научного совета PhD.03/07.06.2024.Т.106.07 при Ферганский политехническом институт. По адресу: 150107, г.Фергана, ул. Фергана, дом 86. Административное здание Ферганский политехнического института, зал конференций. Тел.: (+998)73-241-12-06; факс (+99873)241-12-06, e-mail: [ilmiykengash@ferpi.uz](mailto:ilmiykengash@ferpi.uz) малый зал заседания).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ферганского политехнического института (зарегистрирована за № 203). Адрес: 1500107 г.Фергана, ул. Фергана, дом 86. Административное здание Ферганского политехнического института. Зал конференция Тел.: (+998)73-241-12-06) faks: (+99873) 241-12-06

Автореферат диссертации разослан « 20 » 03 2025 года.  
(протокол рассылки № 1 « 19 » 03 2025 года).



**У.Р. Саломов**  
Председатель научного совета по  
присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

**З.Э.Абдулхаев**  
Ученый секретарь научного совета по  
присуждению ученых степеней, PhD, доцент

**Л.Н.Самиев**  
Председатель научного семинара при  
научном совете по присуждению  
ученых степеней, д.т.н., доцент

## **ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире применение передовых технологий, обеспечивающих управление траекторией осаждения речных наносов в потоке, занимает одно из ведущих мест в повышении эффективности водоприемных сооружений в ирригационных системах. Если учесть, что «во всем мире на площади 4 млрд. 886,3 млн. гектаров выращиваются сельскохозяйственные культуры, из них 43,2% посевных площадей орошаются с использованием водоприемных сооружений<sup>1</sup>», возникает необходимость разработки оптимальных параметров водозаборных сооружений и внедрение их в практику. В связи с этим в странах с развитыми гидротехническими системами, таких как США, Китай, Индия, Нидерланды, актуально использование передовых технологий, направленных на эффективное управление ирригационными системами, оптимизацию гидравлических режимов работы водоприемных сооружений, регулирование расходов, снижение воздействия речных потоков на водозаборные сооружения.

В мире для защиты водоприемных сооружений от заиления проводятся научно-исследовательские работы по совершенствованию их конструкций на основе критериев гидравлического и математического моделирования с учетом скорости осаждения взвешенных и придонных наносов в зависимости от расхода воды. В связи с этим особое внимание уделяется эффективному использованию водных ресурсов в ирригационных системах, обеспечению стабильной работы водозаборных сооружений путем разделения речных наносов на фракции, а также обоснованию параметров и режимов работы сооружения путем углубленного изучения влияния речных наносов на русловые процессы.

В нашей республике принимаются широкомасштабные меры по коренному реформированию системы управления водозаборными сооружениями, проведению исследований по созданию новых технологий, способствующих повышению их эффективности, и их внедрению, что уже приносит определенные результаты. В этом контексте в стратегии “Узбекистан – 2030<sup>2</sup>” по направлению II “Обеспечение благосостояния населения за счет устойчивого экономического роста” предусмотрены важные задачи, в том числе “...обеспечение макроэкономической стабильности и экономического развития необходимыми энергетическими, водными и инфраструктурными ресурсами”. В реализации данных задач особое значение имеют проектирование водохозяйственных сооружений, разработка мер по предотвращению накопления наносов в водоприемных сооружениях, а также создание модернизированных с технической и технологической точки зрения водозаборов, адаптированных к переменным условиям эксплуатации.

---

<sup>1</sup> [www.amm.org.ua](http://www.amm.org.ua)/Понятие и состав земель сельскохозяйственного назначения.

<sup>2</sup> Указ Президента Республики Узбекистан, от 11.09.2023 г. № УП-158

